



IBN SINONING HAYOT YO‘LI VA ILMIY MEROSI: AVTOBIOGRAFIK XOTIRALAR HAMDA JUZZONIY BAYONLARI

Muallif: Xurshida Yuldasheva ¹

Affiliyatsiya: Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti ¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.20209009>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Abu Ali ibn Sinoning o‘z tilidan bayon qilingan xotiralari (Abu Ubayd al-Juzjoni tomonidan yozib olinib, oqqa ko‘chirilgan) hamda Juzjoniyning ustoz haqida yozgan bayoni asosida allomaning hayot yo‘li, ilmiy-ijodiy faoliyati va ilmiy merosi izchil yoritiladi. Xotiralarda erta ta‘lim, ustoz-shogird munosabati, mustaqil mutolaa va sharhlar orqali bilimni chuqurlashtirish, shuningdek tajriba va mashaqqatli mehnat intizomi asosiy tayanch omillar sifatida ko‘rinadi. Juzjoni bayonida esa siyosiy beqarorlik, saroy xizmati, safarlar va sinovlar fonida ham ilmiy ijodning uzluksiz davom etishi, “Ash-Shifo”, “Al-Qonun” kabi yirik asarlarning yaratilish muhiti hamda asarlar ro‘yxati orqali meros ko‘lami dalillanadi. Maqola natijasida mazkur tarjimai hol manbalari Ibn Sinoning shaxsiy taqdiri va ilmiy merosini bir butun manzara sifatida ochib beruvchi ishonchli asos ekani ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: Ibn Sino, Abu Ubayd al-Juzjoni, tarjimai hol, avtobiografik xotira, guvohlik bayoni, ash-Shifo, al-Qonun.

Shunday shaxslar borki, ularning tarjimai holi faqatgina hayotiy faktlar majmuyi bo‘lib qolmaydi; aksincha, ilmiy tafakkur qanday shakllanishi, ilmiy mehnat qanday yo‘l bilan unumdor natija berishi, olimning ijodiy kuchi qaysi sharoitda sinovdan o‘tishi kabi masalalar uchun “tirik laboratoriya” vazifasini bajaradi. Ibn Sino haqida saqlangan biografik korpus aynan shunday imkoniyatni beradi: u bir vaqtning o‘zida ham olimning o‘z tili bilan aytilgan xotiralarini, ham shogird-guvohning davomiy bayonini jamlaydi. Bu holat biografiyani faqat rivoyat darajasida emas, dalil va kuzatuv qatlamlari bilan o‘qishga undaydi [5].

Xorijiy ilmiy an‘anada ham Ibn Sino tarjimai holi alohida korpus sifatida o‘rganiladi. masalan, U.E.Gohlman nashri Ibn Sinoning avtobiografiyasi va Juzjoni davomiy bayonini birga berib, ularni tanqidiy ko‘rinishda izohlaydi [2]. *Encyclopaedia Iranica* esa bu “avtobiografiya/biografiya kompleksi”ning paydo bo‘lishi va Juzjoniyning roli (Ibn Sino aytganini yozib olish yoki Ibn Sino yozgan dastlabki matndan ko‘chirish ehtimoli) haqida aniq ma‘lumot beradi [3]. Shuningdek, Ibn Sino merosining falsafiy-ilmiy tizim sifatida shakllanishi Gutas tadqiqotlarida keng kontekst bilan izohlanadi [4].

Abu Ali ibn Sinoning o‘z tilidan yozib olingan tarjimai holi uning shakllanish jarayoni, ilmiy dunyoqarashi va adabiy-nazariy tafakkurining dastlabki asoslarini anglashda muhim birlamchi manba hisoblanadi [1:11–18]. Ushbu avtobiografik bayon Ibn Sinoning bolalik davri, ta‘lim jarayoni, ilmiy kamoloti va hayotiy tajribalarini muallifning o‘z nigohi orqali yoritib beradi.

Abu Ali ibn Sino Balxlik oilada dunyoga kelgan. Uning otasi Somoniylar davrida Buxoro atroflarida ma'muriy lavozimda xizmat qilgan. Ibn Sino Afshona qishlog'ida tug'ilib, dastlabki bolalik yillari shu hududda o'tadi. Keyinchalik oilasi bilan Buxoroga ko'chib keladi. Buxoro ilmiy muhitida u juda erta yoshidan Qur'on va adab ilmlarini mukammal o'zlashtira boshlaydi. Yoshligidanoq bilimga bo'lgan qobiliyati bilan ajralib turgan Ibn Sino o'n yoshga yetmasdan diniy va filologik bilimlarning asosiy qismini egallaydi.

Ilmiy izlanish jarayonida Ibn Sino mantiq ilmi bilan jiddiy shug'ullana boshlaydi. Dastlab muallimlar orqali mantiqning oddiy masalalarini o'rganadi, biroq tez orada mantiqiy tafakkurning nozik jihatlarini mustaqil ravishda egallashga o'tadi. U mantiqqa oid kitoblarni o'zicha mutolaa qilib, ularga yozilgan sharhlarni chuqur o'rganadi va natijada mantiq ilmini puxta o'zlashtiradi. Shu jarayonda u qiyos, muqaddima va xulosa kabi mantiqiy tushunchalarni amaliy ravishda tahlil qilishga odatlanadi [1:12].

Ibn Sino riyoziy ilmlarni, xususan handasa va astronomiyani ham mustaqil ravishda o'rganadi. Yevklid va Ptolemey asarlari ustida ishlashi uning ilmiy tafakkurini yanada mustahkamlaydi. U o'qituvchilaridan ko'ra chuqurroq tushunishga intilib, murakkab masalalarni mustaqil yechishga harakat qiladi. Bu holat uning ilmiy mustaqilligining erta shakllanganidan dalolat beradi [1:13].

Ilmiy kamolotning keyingi bosqichida Ibn Sino tib ilmi bilan shug'ullanishga kirishadi. Tibni boshqa ilmlarga nisbatan tez va oson egallaganini qayd etadi. Qisqa muddat ichida u tabobatda katta tajriba orttiradi va hatto bilimdon tabiblar uning huzuriga kelib, undan saboq olish darajasiga yetadi. Amaliy tabobat bilan shug'ullanish jarayonida bemorlarni kuzatishi va muolaja tajribasi uning ilmiy dunyoqarashini yanada boyitadi.

Shu bilan birga Ibn Sino ilohiyot masalalariga ham murojaat qiladi. Aristotelning "Metafizika" asarini ko'p bor o'qigan bo'lsa-da, dastlab uning mazmunini anglashda qiyinchilikka duch keladi. Keyinchalik Abu Nasr Forobiyning mazkur asarga yozgan sharhini o'qishi orqali asarning mohiyati va muallif maqsadi unga ayon bo'ladi. Bu hol Ibn Sino tafakkurida sharh va talqinning ilmiy ahamiyatini chuqur anglashiga sabab bo'ladi [1:14].

Ilmiy izlanish jarayonida Ibn Sino ko'pincha kechalari ham mutolaa va yozish bilan mashg'ul bo'lganini qayd etadi. Ba'zi murakkab masalalar tushida unga ayon bo'lganini ta'kidlab, ilm va ruhiy holat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni anglatadi. Qiyin masalalarda esa ibodat va tafakkur orqali yechim topishga intilganini yozadi.

Hayotining keyingi davrida Ibn Sino saroy tabobati bilan shug'ullanib, Somoniy hukmdori Nuh ibn Mansurni davolashda ishtirok etadi. Shu orqali u saroy kutubxonasiidan foydalanish imkoniga ega bo'ladi. Mazkur kutubxona Ibn Sino uchun nodir ilmiy manbalar bilan tanishish va ulardan bahramand bo'lish imkonini yaratadi. U yerda ilgari ko'rmagan va nomini ham eshitmagan ko'plab asarlarni mutolaa qilib, turli fanlar bo'yicha bilimlarini yanada chuqurlashtiradi [1: 14].

Ibn Sino o'z avtobiografiyasida ilmiy yetuklikka yetganini o'n sakkiz yosh bilan bog'laydi. Shu yoshga kelib, u asosiy ilmlarni egallab bo'lganini, keyingi yillarda esa bilimdan ko'ra uni tizimlashtirish va amalda qo'llash muhimroq bo'lganini qayd etadi. Shuningdek, hayotiy sharoitlar ta'sirida turli hududlarga ko'chib yurishi, ilmiy izlanishlarini to'xtatmagan holda davom ettirganini ta'kidlaydi.

Shu tariqa Ibn Sinoning o'z tilidan bayon qilingan tarjimai holi uning ilmiy shaxs sifatida shakllanish bosqichlarini, bilimga munosabatini va tafakkur madaniyatini ochib beradi.

Abu Ubayd al-Juzjoniyy – Ibn Sinoning eng yaqin shogirdi, safdoshi va oxirgi yillaridagi hamrohi. Ustozining ilmiy va shaxsiy hayotini eng yaqin masofadan kuzatgan yagona inson desak, xato bo'lmaydi. Juzjoniyy xotiralari asosan "Ibn Sinoning tarjimai holi" asarida jamlangan. Asarning birinchi qismini Ibn Sino o'zi yozgan, ikkinchi qismini esa Juzjoniyy davom ettirgan [1: 21–35].

Juzjoniyyning guvohlik berishicha, Ibn Sino ilmiy izlanishda qat'iyatli bo'lib, murakkab masalalarni tushunmaguncha tinchimas, hatto tunlari bilan mutolaa qilib, yechim topmaguncha izlanishni davom ettirgan [1: 22].

Juzjoniyy uning hayotini ko'chishlar, siyosiy bosimlar va saroy xizmatlari bilan bog'liq murakkab jarayon sifatida tasvirlaydi, bu esa olimning ilmiy faoliyati doimiy tashqi omillar bilan kesishganini ko'rsatadi. Ibn Sino saroy muhitiga kirib, hukmdorlar xizmatida bo'lishiga qaramay, ilmiy faoliyatni ustuvor deb bilgan, siyosiy notinchliklar uning hayot tarziga bevosita ta'sir ko'rsatgan [1: 25].

Uning ijodiy faoliyati nihoyatda sermahsul bo'lib, Juzjoniyy ko'plab asarlarning yozilish jarayoniga bevosita guvoh bo'lganini ta'kidlaydi. Ibn Sino o'z davrida ham tabib, ham faylasuf sifatida tanilib, ayniqsa tibbiyot sohasidagi amaliy bilimlari bilan tez orada shuhrat qozongan.

Juzjoniyy Ibn Sinoni nafaqat ustoz, balki ideal ilmiy shaxs sifatida ham ko'rsatadi: unda ilmiy izlanish, tafakkur kengligi va ijodiy mustaqillik uyg'unlashgan. Ibn Sino shaxsida ilmiy tafakkur va hayotiy tajriba birlashib, uning asarlarida nazariya va amaliyot uyg'unligi namoyon bo'lgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Абу Али Ибн Сино. Шеърлар ва тиббий дoston / тузувчи А.Ирисов — Тошкент, 1981. – 127 б.
2. William E.Gohlman. The Life of Ibn Sina: A Critical Edition and Annotated Translation. Albany: SUNY Press, 1974. – P.163.
3. "Avicenna ii. Biography." Encyclopedia Iranica (online).
4. Gutas, Dimitri. "Ibn Sina (Avicenna)." Stanford Encyclopedia of Philosophy (online). – P. 76.
5. Jon McGinnis. Avicenna. Oxford: Oxford University Press, 2010.